

QALBI DARYO USTOZ

Baxshillo Ashurov

Navoiy davlat pedagogika instituti

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

“Buyuklar hamisha oddiydirlar, oddiydar esa buyukdirlar”.

Donolar bisotidan

E‘zoz topar ezgulik

Urug‘ini ekkanlar.

“Rahmat” aytib el-ulus

“Baraka top” deganlar.

...Ulug‘ yoshda ham bardam,

Yoshlarday chopib yuring.

“Rahmat” eshitib har dam,

“Baraka” topib yuring!¹

“Umr – oqar daryo”, - deydilar. Betinim oqqan daryo ummonga yetgunicha po‘rtanalar hosil qiladi: goh u qirg‘oqqa, goh bu qirg‘oqqa toshib - o‘ynab o‘zining mavjudligini go‘yo bildirib qo‘ymoqchidek tunda ham shovullagan daryo kechasini butun borliqqa ko‘z-ko‘z qiladi. Hech qachon ortga qarab oqmaydi.

Men o‘z qarashlarimni har qanday kichik daryo emas, azim daryoga mengzagan holda ifoda etmoqlikni ixtiyor etdim. Balki, bu sizga mubolag‘a bo‘lib tuyular, balki erish... Nima bo‘lganda ham, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik – bu bor haqiqat.

Mana shunday jo‘shqin va mehridaryo insonlardan biri - so‘z va ishda yagonaligi bilan zamonamiz qahramonlaridan biriga aylanib ulgurgan olimi zamon Rahmatilla Barakayevdir.

U sermazmun umr yo‘lini bilimi, insoniyligi, kamtarligi va mehnatsevarligi bilan muzayyan etib, xalq hurmatiga sazovor bo‘lgan. Ustozning bosib o‘tgan yo‘li men uchun chinakam ibrat maktabidir, - desam, aslo yanglishmayman. Ustozim zukko olim, kamtarin, shirinsuxan, dilkash, to‘g‘riso‘z, hazil - mutoyibani yaxshi ko‘radigan, bag‘rikeng, mehridaryo, vatanparvar, zahmatkash va olijanob inson.

Mening ilm yo‘liga kirishimga turtki bergan, olg‘a intilishimga ruhiy quvvat bergan va ilmiy ishimga rahbarlik qilgan Rahmatilla Barakayevdan bir umr minnatdorman. Ustozim nazdida zamonamiz ziyolilariga xos bo‘lgan bir qancha fazilatlarini his etdim. Shulardan biri - o‘z shogirdlarini farzandi kabi ehtiyot qilishi, yaxshisini oshirib, yomonini o‘z vaqtida ezgulikka tomon burishidir. Bir necha yillar ilgari men ustozdan ilmiy tadqiqot uchun mavzu olganimdan keyin Toshkentga serqatnov bo‘lib qoldim. Azim shaharda yurishning o‘zi bo‘lmaydi, ayniqsa, turar joy masalasi qiyin edi. Kunlardan bir kuni domla: “Shogird, qayerda

¹ Dilshod Rajab O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, bolalar shoiri

turibsiz? - deb so‘radilar. “Yotoqxonada”, - deb javob berdim. Domla uylariga qo‘ng‘iroq qilib, “Bugun mehmon olib boraman”, - deb aytib qo‘ydilar. Ming xijolat bilan: “Qanday bo‘larkin”, - degan o‘ylar bilan domlanning uylariga borishmaslikka e‘tiroz bildirolmadim. Ustoz ko‘p qavatli uyda emas, hovlida turarkanlar. Domlanning yana bir kamtarinligi ishxona uzoqda bo‘lishiga qaramay, yengil avtomobilida emas, avtobusda qatnashi edi. Shunda ustozning uylariga bordim: Yangam meni ochiq chehra bilan xuddi o‘zlarining qarindoshlariday kutib oldilar. Ustoz meni uydagilariga tanishtirdilar.

Domlanning katta farzandlari Sunnatillo Fransiyada o‘qiyotganligi sababli, unga ajratilgan xona bo‘sh turganligi uchun meni o‘sha uyga joylashtirdilar. Uyga kirib, og‘zim lang ochilib qoldi. Xuddi o‘zimni davlat tasarrufidagi ulkan kutubxonaga kirib qolganday his etdim. Javonlardagi shuncha kitobni ko‘rib, hayratga tushdim. Hammasi alifbo tartibida joylashtirilgan edi. Kitob javonida nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki chet el adabiyotlari ham bor edi. Hatto fransuz, ingliz, rus tillarida yozilgan badiiy adabiyotlar ham mavjud. Bolalar adabiyotiga oid javonda kitoblar, jurnallar, darsliklar, avtoreferatlar alohida tartib bilan terilgan edi. Meni kutubxonama –kutubxona yurishim shart emas edi. Deyarli barcha kitob shu yerda edi. Istaganimcha foydalanishim mumkin. Hatto qaysi kitobdan ikki nusxa bo‘lsa, olib ketishimga ruxsat berildi.

Men o‘sha paytda ham, hozir ham Toshkentga qachon, qaysi vaqt bo‘lishidan qat‘iy nazar, xuddi o‘z uyimga borayotganimday ustozni uylariga kirib boraman. Yangamning muomalasi, samimiyati ilgari qanday bo‘lsa, hozir ham shunday. Ustoz har tashrifimda yangamga: “Baxshillo kelgani uchun Buxoroda qilinmaydigan ovqat qiling”, - deb aytardilar. Yangam darhol moshkichrimi, mastavami yoki norin qilardilar. Hozir ham men o‘zimni shu oilaning bir a‘zosi sifatida his etaman. Biror marotaba ustoz yangamni yoki farzandlarini urishib, koyiganlarini yoki baland ovozda baqirganlarini ko‘rmaganman. Yangam ham, farzandlari ham, kelin va kuyovlari ham oliy ma‘lumotli. Bir so‘z bilan aytganda, ziyolilar oilasi. Domla farzandlariga o‘z fikrini erkin, dadil va qo‘rqmasdan aytishga o‘rgatganlar. Domla farzand va shogirdlari bilan doimo do‘st sifatida gaplashadilar.

Bolalar adabiyotidan kim maqola yozgan bo‘lsa, dissertatsiya himoya qilgan bo‘lsa, o‘qib chiqishimni uqtirar edilar. Ustozim tufayli Tohir Malik, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboev, Abdurahman Akbar, Dilshod Rajab, Zuhiriddin Isomiddinov kabi bolalarning buyuk yozuvchi, shoirlari, adabiyotshunoslar suhbatida bo‘lish nasib etgan. Ustoz sababli Dilshod Rajab, Kavsar Turdievalarning maqolalarini, avtoreferatlarini, dissertatsiyalarini hijjalab o‘qib chiqqanman. Shunday jarayonlar ta‘sirida “Holva degan bilan og‘iz shirin bo‘lmas”ligini anglab yetdim. U institutda qanchalab seminarlar, qanchalab dissertatsiya himoyasi

bo‘lsa, hammasiga qatnashishimni talab qilardilar. Harbiylar tilida,- ”Mashqda qancha qiynalsang, jangda shuncha oson bo‘ladi”, - deyilgan. Men yozgan har bir ilmiy maqolamni ustozimga ko‘rsatmasdan chop ettirmasdim, chunki ustoz har bir maqolamni o‘qib, tahrir qilib berardilar. Shundan keyin qo‘rqmasdan respublikamizning eng nufuzli jurnallariga chop etishga berardim. Domla kamsuqum, hokisor inson. Qayerga borsam, ustozim kim ekanligi haqida so‘rashganda, g‘urur ila “Rahmatilla Barakayev”,- deb ayta olaman. Ba’zida Barakayevning nomi tilga olinganida, suhbat mavzusi ilmi urfon tomonga, ma’rifiy tomonga burilganligini his etaman. Shunda uning hurmati, bilimi, nufuzi va obro‘ - e’tibori qanchalik yuqori ekanligidan boshim ko‘kka qadar yetadi. Shuning uchun ham qizim Sharopova Nafisaning ilmiy ishiga ham ustozim rahbarlik qilayotganlaridan juda mamnunman.

Ustoz, tabarruk 70 yoshingiz muborak bo‘lsin! Yangi O‘zbekistonimizning kelajagi bo‘lmish yosh avlod vakillari – bolalarimiz va ularning adabiyoti rivoji uchun haqgo‘y adabiyotshunos sifatida kurashdan hech qachon tolmang.